

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

« METRALOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT
SIFATI MENEJMENTI» kafedrası

5310600 – Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatasiyasi

“O‘ZAROALMASHUVCHANLIK, STANDARTLASHTIRISH VA
TEXNIKAVIY O‘LCHOVLAR” FANIDAN
AMALIY MASHGULOTLARNI BAJARISH BO‘YICHA USLUBIY
QO‘RSATMA



Andijon – 2017 yil

“TASDIQLANGAN”

Andijon mashinasozlik instituti
oquv– uslubiy kengashida yigilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan
(Kengashning 2017-yil 15.03 dagi 6-sonli bayonnjmasi)

Kengash raisi: Q.Ermatov

“MA’QULLANGAN”

“Mashinasozlik” fakulteti Kengashida
muhoqama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan
(2017-yil 11.03 dagi 1-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: Tojiboyev B.

“TAVSIYA ETILGAN”

«Metrologiya, standartlashtirish va maxsulot sifati menejmenti»
kafedrasi yigilishida muxokama qilingan va foydalanishga
tavsiya etilgan
(kafedra yigilishining 2017 yil "11.03" dagi 1-sonli bayonnomasi)

Kafedra mudiri: Esanova SH.

Taqrizchilar:

1. Qo'shmaqov I.I. -“Andijon mexanika zavodi” SHK bosh metrologi, sifat menejmenti bo'yicha ekspert auditor
2. Bekqulov B. – AndMI. «Ummumtexnika fanlari» kafedrasi katta o'qituvchi.

Tuzuvchi:

1. Nasirdinova N. –AndMI «Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti» kafedrasi assistenti

Mundarija

№	mavzular	bet
1	Kirish	
2	Standartlar va ma'lumotnoma jadvallaridan silliq tsilindrsimon birikmalar detallari uchun o'tqazish xarakterini aniqlash. Dopusklar maydonlarini o'zaro joylashuvlarini sxemalarini qurish va o'tqazishlarni chizmalarda ko'rsatilishi. Silliq tsilindrsimon birikmalar uchun o'tqazish turini aniqlash va joizliklar maydonlarining o'zaro joylashuvlarini sxemasini qurish.	
3	Tebranish podshipnigining o'tkazishini radial bosimining intensivligi bo'yicha hisoblash Tebranish podshipnigi uchun birikish diametrlarining chegaraviy chetlanishlarini tanlash va sxemasini qurish.	
4	Detallarni nazorat qilish uchun silliq kalibrlarning ijrochi o'lchamlarini hisoblash. Kalibr-proba o'lchamlarini hisoblash Kalibr-skoba o'lchamlarini hisoblash	
5	SHponkali birikmalar detallari o'lchamlarining hisob-kitob qilinishi SHponkaning eni uchun u bilan birikuvchi detallarning joizlik maydoni grafigini qurish. Birikmaning yig'ma chizmasi eskizini va detallarini alohida chizish, hamda ularga o'lchamlari va chegaraviy chetlanishlarini qo'yish	
6	Sirpanish podshipniklari uchun oraliqli hisoblash. Sirpanish podshipniklari uchun o'tqazishlarni tanlash	
7	Rezbali birikmalarni hisoblash.	

KIRISH

“O‘zaro almashinuvchanlik, standartlashtirish va texnik o‘lchovlar” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma oliy ta‘limning 5320100- “Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi”, 5320200 “Mashinasozlik texnologiyasi, mashinamozliklik ishlab chiqarishni jixozlash va avtomatlashtirish”, 5320300 “Texologik mashinalar va jihozlar”, 5310600 “Er usti transport tizimlari va ularning eksplutasiyasi, 5111000- Kasb –ta’limi, 5310500– “Avtomobilsozlik va traktorsozlik”, yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu yo‘nalishlarning o‘quv rejasi va o‘quv dasturlariga mos ravishda tayyorlangan.

Uslubiy ko‘rsatma talabalardan tebranish va sirpanish podshipniklari, hamda uchish apparatlarining detallarini nazorat qilish uchun silliq kaliblar parametrlarini hisoblashda kerakli ko‘nikmalarni hosil qilishda ko‘mak beradi.

Uslubiy ko‘rsatma ISO va JO‘YAT tizimlari talablariga binoan mashinasozlikning barcha sohalarida qo‘llanayotgan hisoblash usullari, iboralar, ta’riflar, shartli belgilardan qo‘llangan holda tuzilgan.

1-AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Standartlar va ma'lumotnoma jadvallaridan silliq silindrsimon birikmalar detalari uchun o'tqazish xarakterini aniqlash.

Ishning maqsadi: Standartlar va ma'lumotnoma jadvallaridan silliq tsilindrsimon birikmalar detalolari uchun o'tqazgich xarakterini aniqlashni o'rganish

Mashina detallarini loyihalashda ularning geometrik ko'rsatkichlari elementlarining o'lchamlari, yuzalarining shakli va ularning o'zaro joylashish o'rni bilan beriladi. Ularni tayyorlashda tayyorlangan real detal bilan loyihadagi ideal detal geometrik ko'rsatkichlarining qiymatlari o'rtasida chetga chiqishlar kuzatiladi. Bu kabi chetga chiqishlar **xatoliklar** deb ataladi. Xatoliklar tashqi muhit tahsirida, material strukturasidagi ichki o'zgarishlar, yeyilish va boshqalar natijasida mashinalarni saqlash va ulardan foydalanish jarayonida ham 'aydo bo'lishi mumkin.

Detallarning haqiqiy o'lchamlarini ideal o'lchamlariga yaqin kelish darajasiga **aniqlik** deb ataladi. Aniqlik va hatolik tushunchalari o'zarobog'liq bo'ladi. Detal qancha aniq tayyorlangan bo'lsa, hatolik shuncha kichik bo'ladi, va aksincha, detal qancha noaniq tayyorlangan bo'lsa, hatolik shuncha katta bo'ladi. Detallarning geometrik ko'rsatkichlari bo'yicha aniqligi keng mahnoli tushuncha bo'lib, ular quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

- 1) elementlar o'lchamlari;
- 2) element yuzalarining shakli;
- 3) yuzalarning g'adir-budirligi;
- 4) elementlarning o'zaro joylashish o'rni bilan.

Konstruktorlar hatoliklarning kelib chiqishi muqarrarligi uchun hatoliklarning mahlum oraligida detal mashinalarni yig'ish va foydalanish talablariga javob berishi mumkin ekanligidan kelib chiqadi. Chunki real tayyorlash va o'lchash sharoitida absolg'yut aniqlikdagi ideal detal tayyorlab bo'lmaydi. Konstruktor hatolikka yo'l qo'yishga ruxsat berishda detalni boshidan ishga yaroqsiz holga kelib qolmasligi uchun hatolikni chegaralab qo'yishi kerak bo'ladi. Ushbu chegaralar detalning ishga yaroqlilik ko'rsatkichi bo'ladi. Detalning yaroqlilik chegarasiga ikki qarama-qarshi aniqlik va iktisodiy ko'rsatkichlar tahsir etadi. Biri chegaralarni qisqarishini talab etsa, ikkinchisi kattalashini talab etadi. SHuning uchun ularning eng maqbul qiymatlarini aniqlash masalasini hal qilish kerak bo'ladi.

Hatoliklar bir qator sabablarga ko'ra yuzaga kelib, ular quyidagilarga bo'linadi: doimiy tizimtik hatoliklar, o'zgaruvchi tizimtik hatoliklar va tasodifiy hatoliklar. Ushbu hatoliklar matematik statistika va ehtimollar nazariyasi qoidalariga asosan o'rganiladi va detallarga joizliklar belgilashda hisobga olinadi.

1. Birikmalar va uning turlari.

Tekis tsilindrik birikmalar vazifasiga ko'ra uchga bo'linadi:

- a) Qo'zg'aluvchi birikmalar;
- b) Qo'zg'almas birikmalar;
- v) O'zgaruvchan (oraliq yoki o'tuvchi) birikmalar.

Qo'zg'aluvchi birikmalarda birikuvchi detallar bir-biriga nisbatan erkin harakatlanishi tahminlangan bo'ladi. Bunday birikmalar garantiyalangan tirqishga ega bo'ladi.

Qo'zg'almas birikmalarda detallar bir-biriga nisbatan mustaxkam birikkan bo'lib, garantiyalangan taranglik va qo'shimcha biriktiruvchi detallar qo'llab tahminlanadi.

O'zgaruvchan (oraliq yoki o'tuvchi) birikmalarda birikuvchi detallarni markazlashtirish juda kichik tirqish yoki taranglik miqdori bilan tahminlanadi.

2. Joizlik va joizliklarning yagona tizimi. Detailarni ishlatish talablariga javob beruvchi eng kam miqdordagi joizliklar sonini tahminlash maqsadida joizlik va joizliklar tizimi ishlab chiqilgan.

Joizlik va joizliklarning yagona tizimi tarkibiga atama va tushunchalar, nominalg' o'lchamlarning intervallari, joizlik va chetlanishlarning formula va son qiymatlari, joizlik maydoni va joizliklarni hosil qilish qoidalari va shartli belgilari kiradi.

Joizlik va joizliklar yagona tizimi deb standartlar ko'rinishida rasmiylashtirilgan va ma'lum qonuniyat asosida ishlab chiqilgan joizlik va joizliklar majmuiga aytiladi. Standart joizlik va joizliklardan foydalanish o'zaroalmashinishni tahminlab katta iqtisodiy samara olish imkonini beradi. Xozirgi kundagi standartlar xalqaro standartlashtirish komitasi ISO tavsiyasiga muvofiqlashtirilgan. Mashinasozlikda joizlik va joizliklarning standart tizimi 3150 mm o'lcham uchun ishlab chiqilgan. Ammo traktor va avtomobillarning asosiy birikuvchi detallarining o'lchamlari 500 mmdan ortmasligi sababli bu tizim 500 mm gacha va undan ortiq o'lchamlar uchun ikkiga bo'lib tayyorlangan. Joizlik va joizliklarning yagona tizimi quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

3. Joizlik va joizliklar yagona tizimining asosi- Teshik va val tizimlari. Standartda ikkita teng huquqli joizlik tizimi belgilangan. Teshik va val tizimlari.

Teshik tizimida teshik asosiy detal hisoblanib, turli xil birikmalar val o'lchamlarni o'zgartirish yo'li bilan olinadi. Teshik tizimida teshikning 'astki chegaraviy chetlanishi nolga teng bo'ladi ($EI=0$).

Val tizimida val asosiy detal hisoblanib, turli xil birikmalar teshik o'lchamlarini o'zgartirish yo'li bilan olinadi. Val tizimida valning yuqorigi chegaraviy chetlanishi nolga teng bo'ladi ($es=0$).

Birikmalar ishiga joizlik va joizliklarni qaysi tizimda olinishi tahsir etmaydi. U yoki bu tizimni tanlash detallarni tayyorlash va ularni yig'ish jarayonining murakkabligi, hamda berilgan qismni tayyorlash tannarxi orqali aniqlanadi.

4. Joizlik birligi. Tajribalarning ko'rsatishi bo'yicha detalg' diametrini ortishi bilan ishlov berish hatoligi ortib boradi (kontakt yuzasi katta bo'lganligi sababli diametri katta detallar uzoqroq ishlaydi).

O'tkazilgan tajribalar asosida xatolikni diametrga bog'liqlik egri chizig'ining qonuniyati aniqlangan.

$$\text{bu yerda: } x = 2,5 \dots 3,5 \quad V = c \sqrt[x]{d}$$

$$s = 0,45$$

SHunga asosan joizlikning diametrga bog'liqlik qonuniyati aniqlangan:

$$i = 0,45 \sqrt[3]{d_{yp}} + 0,001 \cdot d_{yp}$$

$$\text{bu yerda: } d_{yp} = \sqrt{d_{\max} \cdot d_{\min}}$$

i - joizlik birligi.

Joizlik birligi detalg' tayyorlash murakkabligini diametrga bog'liqligini ko'rsatib, uni joizlik masshtabi deyish mumkin.

5. Diametr intervallari. Joizlik miqdorini diametrga bog'liqlik qonuniyatidan diametr ortishi bilan kichik va katta diametrlarning bir xil intervalga har xil joizliklar to'g'ri keladi va aksincha. Qonuniyatga asosan 1 dan 500 mm gacha bo'lgan diametr **13** ta intervalga bo'linib ularda joizlik miqdorining doimiyliigi tahminlanadi.

Intervallarni ortib borishi geometrik 'rogressiya asosida bo'lib maxraji 1,5 ga teng.

1...3 , 3...6 , 6...10 , 10...18 , 18...30 , 30...50 , 50...80 , 80...120 , 120...180 , 180...250 , 250...315 , 315...400 , 400...500 .

Nominalg' o'lchamlarning asosiy intervallaridan tashqari oraliq intervallari ham mavjud. 500 mm gacha va undan ortiq nominalg' o'lchamlar uchun asosiy va oraliq intervallar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

Asosiy intervallar nominalg' o'lchamga bog'liq holda bir tekis o'zgaruvchi tizimning barcha joizliklari va chegaraviy chetlanishlari uchun qo'llaniladi. Oraliq intervallar 10 mm dan ortiq nominalg' o'lchamlar uchun kiritilgan bo'lib, ular asosiy intervalni ikki yoki uchta oraliq intervalga bo'ladi. Oraliq intervallar nominalg' o'lcham bilan ancha keskin bog'lanishga ega bo'lgan chegaraviy chetlanishlarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Bularga **a** dan **cd** gacha va **r** dan **zc** gacha asosiy chetlanishlarga ega bo'lgan vallar, hamda **A** dan **CD** gacha va **R** dan **ZC** gacha asosiy chetlanishlarga ega bo'lgan teshiklar kiradi.

Har bir nominalg' o'lcham intervali uchun joizlik va chegaraviy chetlanishlarni hisoblash uning chegaraviy qiymatlarining o'rta geometrigi bo'yicha bajariladi.

$$D = \sqrt{D_{\min} \cdot D_{\max}} \quad .$$

3 mm gacha bo'lgan birinchi interval uchun $D = \sqrt{3}$ qabul qilingan. Har bir nominal o'lchamning chegara intervallaridan faqat yuqorigisigina ushbu intervalga kiradi. pastki o'lcham esa oldingi intervalga tegishli bo'ladi. Misol uchun 6 mm dan 10 mm gacha intervalda pastki 6 mm li o'lcham ushbu intervalga kirmaydi, 10 mm li o'lcham esa ushbu intervalga kiradi.

6. Aniqlik klasslari (joizliklar qatori). Aniqlik klasslari D'YaT ga ko'ra 19 ta aniqlik klassi mavjud bo'lib u **kvalitet** deb ataladi. Bu so'z frantsuzcha bo'lib «sifat» mahnosini beradi.

500 mm gacha bo'lgan nominal
o'lchamlarning intervallari

Asosiy intervallar		Oraliq intervallar	
Dan	gacha	Dan	gacha
-	3	-	-
3	6	-	-
6	10	-	-
10	18	10	14
18	30	18	24
30	50	30	40
50	80	50	65
80	120	80	100
120	180	120	140
180	250	180	200
250	315	250	280
315	400	315	355
400	500	400	450

500 dan 10000 mm gacha bo'lgan nominal
o'lchamlarning intarvallari

Asosiy intervallar		Oraliq intervallar	
dan	gacha	dan	Gacha
500	630	500	560
630	800	630	710
800	1000	800	900
1000	1250	1000	1120
1250	1600	1250	1400
1600	2000	1600	1800
2000	2500	2000	2240
2500	3150	2500	2800
3150	4000	3150	3550
4000	5000	4000	4500
5000	6300	5000	5600
6300	8000	6300	7100
8000	10 000	8000	9000

Kvalitet bu joizliklar majmui bo'lib, u nominal o'lchamga qarab o'zgarib borib, aniqlik darajasi barcha nominal o'lchamlar uchun bir xil bo'ladi.

Kvalitet diametrdan qathiy nazar o'lcham olish murakkabligini xarakterlaydi. U 19 ta bo'lib, 01; 0; 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16; 17 kabi tartib raqami bilan belgilanadi. Mahlum kvalitetdagi joizlik **IT** kabi lotin harflari bilan va kvalitet nomeri bilan belgilanadi, masalan, **IT7** 7-kvalitet bo'yicha joizlikni bildiradi. SHuning uchun aniqlik klasslari bo'yicha joizliklar **IT01; IT0; IT1.....IT17** kabi belgilanadi.

Joizlik miqdori aniqlik koeffitsienti deb ataluvchi joizlik birligi soni-a har bir kvalitet uchun o'zgarmas soni orqali ifodalanadi.

$$IT = a \cdot i$$

a- soni bir kvalitetdan ikkinchisiga o'tishda geometrik 'rogressiya maxraji 1,6 ga teng miqdorda ortib boradi.

Kvalitetlar quyidagi qo'llanish soxasiga ega:

Tekis parallel yuzali o'lchovlarda - **IT01, IT0, IT1**

Kalibrilar va juda aniq detallarda - **IT2.... IT5**

Mashina va mexanizm birikmalarida - **IT6.... IT12**

Birikmaydigan detallarda - **IT13...IT17**

Berilgan kvalitet va nominalg' o'lchamlar intervali uchun barcha turdagi elementlar (val, teshik, qo'yim va boshqalar) o'lchamlari uchun joizlik miqdori o'zgarmas bo'ladi. Joizliklarning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, 5-kvalitetdan boshlab keyingisiga o'tishda joizlik miqdori 60% ga ortadi. Har besh kvalitetda joizlik miqdori 10 marta ortadi. Bu qoida mavjud kvalitetlardan ham noaniqroq kvalitetlar uchun ham joizlik belgilash imkonini beradi. Masalan: **IT18=10·IT13**.

7. Asosiy chetlanishlar qatori.

Joizlik va joizliklarning yagona tizimida joizlik maydonining nominal o'lchamni ko'rsatuvchi nolg' chizig'iga nisbatan yaqin turgan chegaraviy chetlanishi **asosiy chetlanish** deb qabul qilingan. Nolg' chiziqdan 'astda joylashgan barcha joizlik maydonlari uchun yuqorigi chegaraviy chetlanish asosiy chetlanish bo'ladi. Va aksincha, nolg' chiziqdan yuqorida joylashgan barcha joizlik maydonlari uchun 'astki chegaraviy chetlanish asosiy chetlanish bo'ladi. Joizlik va joizliklar sonini chegaralash maqsadida teshik va vallar uchun **28** tadan asosiy chetlanishlar belgilangan bo'lib, ular bir yoki ikkitadan lotin xarflari orqali ifodalanadi (5-rasmga qarang). Agar joizlik maydonining nol chiziqqa nisbatan joylashish o'rni asosiy chetlanish orqali ifodalansa u holda: asosiy chetlanish yuqorigi chegaraviy chetlanish bo'lsa, 'astki chegaraviy chetlanish quyidagicha to'iladi:

Teshik uchun – **EI = ES- IT**

Val uchun - **ei = es- IT**


Agar asosiy chetlanish 'astki chetlanish bo'lsa, yuqorigi chegaraviy chetlanish quyidagicha to'iladi:

Teshik uchun – **ES = EI + IT**

Val uchun - **es = ei + IT**




1-рasm. Teshik va val joizlik maydonlarining asosiy chetlanishlar qatori




2-rasm. Teshik (a) va valning (b) asosiy четланishlari ifodalangan sxemalar.

SHu bilan birga teshik tizimida asosiy teshikning pastki chegaraviy четланishi $EI = 0$ bo'lganligi uchun asosiy otvarstiyaning четланishi H xarfi bilan belgilanuvchi четланishga mos tushadi va aksincha val tizimsida asosiy valning четланishi h xarfi bilan belgilanuvchi четланishga mos tushadi. Yahni:

a) asosiy teshikning четланishi



b) asosiy valning четланishi








A dan H gacha четланishlar qo'zg'aluvchi birikmalar olishga mo'ljallangan. J dan N gacha – o'zgaruvchi joizliklarga, P dan ZC gacha esa qo'zg'almas birikmalar olishga mo'ljallangan. Is va is joizlik maydonlari nol g' chiziqqa nisbatan simmetrik joylashgan.

Birikmalarda joizliklar sonini va turini kamaytirish maqsadida asosiy va yordamchi joizliklar turidan foydalanish tavsiya etiladi.

8. Joizlik va joizliklarning yagona tizimi asosida joizliklar, kvalitetlar va chegaraviy четланishlarni chizmalarda belgilanishi.

Joizlik va joizliklarning yagona tizimida joizliklar, kvalitetlar va chegaraviy chetlanishlarni chizmalarda quyidagicha belgilash qabul qilingan.

1. Teshik uchun	
2. Val uchun	
3. Teshik va val birikmasi Uchun	
4. SHu birikmani belgilashning boshqacha ko'rinishi	
5. SHu birikmani belgilashning yana bir ko'rinishi	

Chegaraviy chetlanishlarning son qiymatini chizmalarda ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik orqali ularni uch xil ko'rinishda ifodalash mumkin.

- a) $\phi 18H7, \phi 12e8$
-
- b) $\phi 18^{+0,018}, \phi 12^{-0,032}_{-0,059}$
-
- v) $\phi 18H7(+0,018), \phi 12e8(-0,032_{-0,059})$
-

2-AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Silliqlik silindrsimon birikmalar uchun o'tqazish turini aniqlash va joizliklar maydonlarining o'zaro joylashuvlarini sxemasini qurish

Ishning maqsadi:

1. Silliqlik silindrsimon birikmalar uchun o'tqazish turini aniqlash va joizlik maydonining asosiy va chegaraviy chetlanishlarini, o'lcham joizlik, o'lcham kvaliteti, birikmaning chegaraviy tirqishi yoki taranglik, joizlik joizlikini to'g'ri aniqlashni o'rganish.
2. Joizliklar maydonlarining o'zaro joylashuvlarini sxemasini qurishni o'rganish.

Mashg'ulotda quyidagilarni aniqlash talab etiladi:

1. Berilgan joizlikga asosan uning qaysi joizliklar tizimida (sistemasida) berilganligini aniqlash.
2. Val va teshikga tegishli asosiy va chegaraviy chetlanishlarining qiymati va ishoralarini mahlumotnoma jadvallaridan aniqlash.

3. Val va teshikning chegaraviy o'lchamlari va joizlikini aniqlash.
4. Birikmaning chegaraviy tirqishi yoki tarangliki, joizlik joizliki, hamda joizlik guruxini aniqlash.
5. Berilgan birikmaning joizlik maydoni grafigi sxemasini ixtiyoriy masshtabda chizish.
6. Birikmaning joizliki va chetlanishlari ko'rsatilgan yig'ma va detallari eskizini chizish.

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar:

Mashg'ulotni bajarish uchun talabalarga to'shiriq tariqasida birikmalar shartli belgilanishi bo'yicha uch xil (teshik sistemasida, val sistemasida va aralash) berilishi mumkin. SHuning uchun birinchi navbatda birikmaning nominal o'lchami, qaysi sistemada berilganligi, teshik va valning asosiy chetlanishi va aniqlik klassi (kvaliteti) tahriflanadi. Masalan:

Variant bo'yicha

$$\text{a) } \text{Ø}75 \frac{H8}{s7}; \quad \text{v) } \text{Ø}20 \frac{G5}{h4}; \quad \text{s) } \text{Ø}40 \frac{H6}{g7} \quad \text{birikmalar berilgan.}$$

Ushbu birikmalar bo'yicha 1-topshiriqni bajaramiz.

a) $\text{Ø}75 \frac{H8}{s7}$ birikmaning nominal o'lchami 75 mm bo'lib, teshik sistemasida berilgan, teshik asosiy detalga xisoblanib, uning asosiy chetlanishi «H» bo'lib, aniqlik klassi 8-kvalitet, valning asosiy chetlanishi «s» bo'lib, uning ham aniqlik klassi 7-kvalitet.

1. Mahlumotnoma jadvallaridan val va teshiklarning chegaraviy chetlanishlarini aniqlaymiz.

Teshik uchun: $\text{Ø}75H8 \left(\begin{smallmatrix} +0,046 \\ 0 \end{smallmatrix} \right)$

Val uchun: $\text{Ø}75s7 \left(\begin{smallmatrix} +0,089 \\ +0,059 \end{smallmatrix} \right)$

2. CHegaraviy o'lchamlarni aniqlaymiz:

Teshik uchun $D_{\max} = D_n + ES = 75 + 0,046 = 75,046\text{mm}$

$$D_{\min} = D_n + EI = 75 + 0 = 75,0\text{mm}$$

Val uchun $d_{\max} = d_n + es = 75 + 0,089 = 75,089\text{mm}$

$$d_{\min} = d_n + ei = 75 + 0,059 = 75,059\text{mm}$$

3. Teshik va valning joizliklarini aniqlaymiz:

$$T_D = D_{\max} - D_{\min} = 75,046 - 75,0 = 0,046\text{mm}$$

$$T_d = d_{\max} - d_{\min} = 75,089 - 75,059 = 0,030\text{mm}$$

4. Joizlikning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz:

Berilgan birikma qo'zg'aluvchi (teshikning o'lchami val o'lchamidan katta) bo'lsa tirqishning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz, qo'zg'almas (teshikning o'lchami val o'lchamidan kichik) bo'lsa taranglikning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz. Bizning misolimizda qo'zg'almas birikma berilgan.

$$N_{\max} = d_{\max} - D_{\min} = 75,089 - 75,0 = 0,089\text{mm}$$


$$N_{\min} = d_{\min} - D_{\max} = 75,059 - 75,046 = 0,013\text{mm}$$

5. Joizlik joizlikini aniqlaymiz:

$$T_{\Delta} = N_{\max} - N_{\min} = 0,089 - 0,013 = 0,076\text{mm}$$


$$T_{\Delta} = T_D + T_d = 0,046 + 0,030 = 0,076\text{mm}$$

6. Joizlikning joizlik maydoni grafigini chizamiz:



7. 11-formatli chizmachilik qog'ozining yuqori qismiga joizlikning joizlik maydoni grafigini, pastki qismiga esa, birikmaning yig'ma va detallari eskizini chizamiz. Eskizda joizlik va uning chetlanishlari ko'rsatiladi.

$\varnothing 75 \frac{H8}{s7}$ joizlikning grafigi va birikmaning eskizi



v) Variant bo'yicha $\text{Ø}20 \frac{\text{G5}}{\text{h4}}$ birikma berilgan.

Birikma 20 mm nominal o'lcham bilan, val sistemasida tayyorlangan bo'lib, unda val asosiy detalg' xisoblanib, uning asosiy chetlanishi «h», aniqlik klassi esa 4-kvalitetda, teshikning asosiy chetlanishi «G», aniqlik klassi esa 5-kvalitetda.

1. Mahlumotnoma jadvallaridan val va teshiklarning chegaraviy chetlanishlarini aniqlaymiz.

Teshik uchun: $\text{Ø}20\text{G5} \left(\begin{smallmatrix} +0,016 \\ +0,007 \end{smallmatrix} \right)$

Val uchun: $\text{Ø}20\text{h4} \left(\begin{smallmatrix} 0 \\ -0,006 \end{smallmatrix} \right)$

2. CHegaraviy o'lchamlarni aniqlaymiz:

Teshik uchun $D_{\max} = D_n + ES = 20 + 0,016 = 20,016\text{mm}$

$D_{\min} = D_n + EI = 20 + 0,007 = 20,007\text{mm}$

Val uchun $d_{\max} = d_n + es = 20 + 0 = 20,0\text{mm}$

$d_{\min} = d_n + ei = 20 - 0,006 = 19,994\text{mm}$

1. Teshik va valning joizliklarini aniqlaymiz:

$T_D = D_{\max} - D_{\min} = 20,016 - 20,007 = 0,009\text{mm}$

$T_d = d_{\max} - d_{\min} = 20,0 - 19,994 = 0,006\text{mm}$

2. Joizlikning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz:

Berilgan birikma qo'zg'aluvchi (teshikning o'lchami val o'lchamidan katta) bo'lsa tirqishning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz, qo'zg'almas (teshikning o'lchami val o'lchamidan kichik) bo'lsa taranglikning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz. Bizning misolimizda qo'zg'aluvchi birikma berilgan.

$S_{\max} = D_{\max} - d_{\min} = 20,016 - 19,994 = 0,022\text{mm}$


$S_{\min} = D_{\min} - d_{\max} = 20,007 - 20,0 = 0,007\text{mm}$

3. Joizlik joizlikini aniqlaymiz:

$T_{\Delta} = S_{\max} - S_{\min} = 0,022 - 0,007 = 0,015\text{mm}$


$T_{\Delta} = T_D + T_d = 0,009 + 0,006 = 0,015\text{mm}$

4. Joizlikning joizlik maydoni grafigini chizamiz:



5. 11-formatli chizmachilik qog'ozining yuqori qismiga joizlikning joizlik maydoni grafigini, pastki qismiga esa, birikmaning yig'ma va detallari eskizini chizamiz. Eskizda joizlik va uning chetlanishlari ko'rsatiladi.

$\varnothing 20 \frac{G5}{h4}$ joizlikning grafigi va birikmaning eskizi



c) Variant bo'yicha $\text{Ø}40 \frac{P6}{g7}$ birikma berilgan.

Birikma 40 mm nominal o'lcham bilan aralash sistemada tayyorlangan, unda teshik val sistemasida, val esa teshik sistemasida, teshikning asosiy chetlanishi «P», aniqlik klassi 6 – kvalitetda, valning asosiy chetlanishi esa «g», aniqlik klassi 7 - kvalitetda.

1. Mahlumotnoma jadvallaridan val va teshiklarning chegaraviy chetlanishlarini aniqlaymiz.

Teshik uchun: $\text{Ø}40 P6 \begin{pmatrix} -0,026 \\ -0,042 \end{pmatrix}$

Val uchun: $\text{Ø}40 g7 \begin{pmatrix} -0,009 \\ -0,034 \end{pmatrix}$

2. CHegaraviy o'lchamlarni aniqlaymiz:

Teshik uchun $D_{\max} = D_n + ES = 40 - 0,026 = 39,974\text{mm}$

$D_{\min} = D_n + EI = 40 - 0,042 = 39,958\text{mm}$

Val uchun $d_{\max} = d_n + es = 40 - 0,009 = 39,991\text{mm}$

$d_{\min} = d_n + ei = 40 - 0,034 = 39,966\text{mm}$

6. Teshik va valning joizliklarini aniqlaymiz:

$T_D = D_{\max} - D_{\min} = 39,974 - 39,958 = 0,016\text{mm}$

$T_d = d_{\max} - d_{\min} = 39,991 - 39,966 = 0,025\text{mm}$

7. Joizlikning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz:

Berilgan birikma qo'zg'aluvchi (teshikning o'lchami val o'lchamidan katta) bo'lsa tirqishning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz, qo'zg'almas (teshikning o'lchami val o'lchamidan kichik) bo'lsa taranglikning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz. Bizning misolimizda o'zgaruvchi joizlikli birikma berilgan.

$N_{\max} = d_{\max} - D_{\min} = 39,991 - 39,958 = 0,033\text{mm}$

$N_{\min} = d_{\min} - D_{\max} = 39,966 - 39,974 = -0,008\text{mm}$


yoki $S_{\max} = -N_{\min} = 0,008\text{mm}$

8. Joizlik joizlikini aniqlaymiz:

$T_{\Delta} = N_{\max} + S_{\max} = 0,033 + 0,008 = 0,041\text{mm}$





$T_{\Delta} = T_D + T_d = 0,016 + 0,025 = 0,041\text{mm}$

9. Joizlikning joizlik maydoni grafigini chizamiz:



10.11-formatli chizmachilik qog'ozining yuqori qismiga joizlikning joizlik maydoni grafigini, pastki qismiga esa, birikmaning yig'ma va detallari eskizini chizamiz. Eskizda joizlik va uning chetlanishlari ko'rsatiladi.

$\varnothing 40 \frac{P6}{g7}$ joizlikning grafigi va birikmaning eskizi



3-AMALIY MASHG'ULOT.

Mavzu: Tebranish podshinigining o'tqazishini radial bosimining intensivligi bo'yicha hisoblash

Ishning maqsadi: Tebranish podshinigining o'tqazishini radial bosimining intensivligi bo'yicha hisoblashni o'rganish

Tebranish podshipniklaridan xalq xo'jaligining barcha sohalarida foydalaniladigan mashina, mexanizm va turli jihozlarda keng qo'llaniladi. Tebranish podshi'niklari mashina va mexanizmlarning bir-biriga nisbatan quzg'aluvchi detallari orasidagi ishqalanish koeffitsientini keskin kamaytirish uchun xizmat qiladi. Buning natijasida ishqalanish oqibatida detallarning tez yeyilib ishdan chiqishi bartaraf qilinadi. Tebranish podshipniklarining aksariyat kop ichki va tashqi xalqali bo'lib, ularning tashqi xalqasi korpus va ichki xalqasi esa val bilan birikma hosil qiladi.

Tebranish podshipniklariga alohida vazifa yuklanganligi sababli, ularning 1000 dan ortiq standartlashtirilgan o'lchamlarga ega bo'lgan turlari mavjud. Ularning ichki diametrlari 0,6 mm dan 1600 mm gacha boradi. Tebranish podshi'niklarining turlari, o'lchamlari va boshqalari bo'yicha ma'lumotlar mashina detallari fanida o'rgatiladi.

Tebranish podshipniklariga yuzalarining shakli, o'zaro joylashishi, o'rnatiladigan o'lchamlarining aniqligi va xalqalarining aniq aylanishini ifodalovchi beshta aniqlik klassi belgilangan. Aniqlik klassi ortib borish tartibida quyidagicha belgilangan: 0;6;5;4;2. Ma'lum birikma uchun tegishli podshipnikning aniqlik klassi mashina va mexanizmlarning aylanish aniqligiga va ishlash sharoitiga qo'yilgan talablar asosida tanlanadi. 0-klass aniqlikdagi podshipniklardan avtotraktor va boshqa qishloq xo'jalik mashinasozligida foydalaniladi. 6;5;4;2-aniqlik klasslaridagi podshipniklardan yuqori aniqlik talab etiladigan asboblarda tayyorlashda va stanoksozlikda foydalaniladi. 0-klass 'odshi'nigining joizlik qiymati 5 va 6 kвалitetlarda (IT5 va IT6), yuzalarining notekisligi esa $R_a = 1,25 \dots 2,5$ mkm bo'ladi.

Podshipnik tashqi xalqasining joizlik maydoni asosiy val singari – detalg' jismiga, ichki xalqaning joizlik maydoni asosiy teshik kabi emas, balki, u ko''roq asosiy chetlanishi «K» bo'lgani kabi – detal tashqarisiga belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, ichki xalqa diametri(d)ga joizlik maydoni nominal o'lchamiga nisbatan manfiy qismda joylashgan. Tekis silindrik birikmalarda asosiy teshikning joizlik maydoni musbat qismda joylashgan. SHu bois, oraliq joizlik uchun tayyorlangan vallarda taranglikli joizlik hosil bo'ladi.

1. Tebranish podshipniklarining yig'ishdagi aniqligi.

Podshipniklarning buzulmasdan uzoq muddat ishlay olish ko'rsatkichi ularni birikmada qancha aylanishlar soniga bardosh berishi orqali baholanadi. 'odshi'nik bardosh bera oladigan aylanishlar soni, uning konstruktsiyasiga, turiga, biriktirish sharoitiga va yuklanish turiga bog'liq bo'ladi. Podshipnik xalqalarining bir-biriga nisbatan qo'zg'aluvchanligini tahminlash maqsadida xalqalarining ichki yuzalari

bilan uning sir'anish elementi (sharik yoki rolik kabilar) orasiga ichki tirqish belgilanadi. Bu tirqish radial va o'q bo'yicha bo'ladi. Radial tirqish 'odshi'nikning aylanish o'qiga nisbatan perpendikulyar tekislikda, o'q bo'yicha tirqish esa aylanish o'qi bo'yicha aniqlanadi.

Ichki tirqish o'z navbatida boshlang'ich, o'rnatishdagi va ishchi tirqishlarga ajratiladi. Ishlab chiqarish korxonasida podshipnik boshlang'ich tirqish bilan ishlab chiqariladi. Ichki va tashqi xalqalarning detallar bilan biriktirilishida deformatsiyalanishi natijasida podshipnikning o'rnatishdagi ichki tirqishi ko'pincha boshlang'ich tirqishdan kichikroq bo'ladi. podshipnikning ichki ishchi tirqishi birikuvchi yuzalardagi g'adir-budirliklarning ezilishi xisobiga ornatishdagi tirqishdan biroz kattaroq bo'ladi. Podshipnikning uzoq muddat ishlashi asosan ichki ishchi tirqish qiymatiga bog'liq bo'ladi. O'q bo'yicha tirqish 'odshi'nik sir'anish elementlarini foydalanish davrida o'q bo'ylab qisilib qolishidan saqlaydi.

2. Tebranish podshipniklarining yuklanishi.

Podshipnikning uzoq muddat ishlashini ifodalovchi ichki ishchi tirqish qiymati unga tahsir etayotgan kuch intensivligiga va xalqalarining yuklanish turiga bog'liq holda belgilanadi.


podshipnik xalqalari asosan uch xil yuklanishda bo'ladi: maxalliy, aylanma va tebranma.

Maxalliy yuklanishdagi xalqa qo'zg'almas holatda bo'ladi. Unga tahsir etayotgan kuch bir xil yo'nalishda bo'lganligi sababli u yukni xalqaning mahlum bir qismida qabul qiladi.

Aylanma (tsirkulyatsion) yuklanganda xalqa biriktirilayotgan detal bilan birga aylanadi. Unga tahsir etayotgan kuch bir xil yo'nalishda bo'lganligi sababli xalqa yukni butun aylanasi bo'ylab ketma-ket navbat bilan qabul qiladi.

Tebranma yuklanishda xalqaga tahsir etayotgan bir xil yo'nalishdagi doimiy kuch miqdor jihatdan undan kichikroq bo'lgan aylanma radial kuch bilan qo'shilib tahsir etadi. Bunda teng tahsir etuvchi kuch xalqaning mahlum bir qismida xuddi tebranayotganday o'zgarib turadi (3-rasm).

Maxalliy yuklangan xalqa detal bilan kichik miqdordagi tirqish bilan biriktiriladi. Radial yo'nalgan kuch tahsirida podshipnikning mahlum bir qismida uning sir'anish elementlari xalqalar orasidan qisilib o'tadi va natijada sirpanish elementlarining har biri maxalliy yuklangan xalqani turtib o'tadi. Maxalliy yuklangan xalqa bilan detalg' orasidagi kichik miqdordagi tirqish xalqaga tahsir etayotgan kuchning turtishi tahsirida uni juda sekinlik bilan o'z o'qi atrofida aylanishini tahminlaydi. Bu esa xalqani butun aylanasi bo'ylab bir tekis yeyilishini olib keladi. Yoki bo'lmasa, qo'zg'almas xalqaning kichik bir qismining yeyilishini xalqaning butun aylanasi bo'ylab bir tekis taqsimlab yuboradi.



3-rasm. Podshipnik xalqalarining yuklanish turlari.

a) tashqi xalqa aylanma, ichki xalqa maxalliy yuklangan; b) tashqi xalqa maxalliy, ichki xalqa aylanma yuklangan; v) tebranma yuklanish sxemasi.

Aylanma yuklangan xalqa detal bilan qo'zg'almas joizlik bilan biriktiriladi. Bu qo'zg'almas joizlik xalqa tomonlarini butun aylanasi bo'ylab teng va bir tekis yeyilishini tahminlaydi.

4. Tebranish podshipnikli birikmalarning joizlik va joizliklari.

0- aniqlik klassidagi radial podshipniklar bilan birikuvchi val va teshikga quyidagi joizlik maydonlari tavsiya etiladi:

Xalqaning yuklanish turi	Valning joizlik maydoni	Teshikning joizlik maydoni
Aylanma	is6; k6; m6; n6	K7; M7; N7; 7
Maxalliy	f6; g6; h6; is6	Is7; H7; H8; H9; G7
Tebranma	is6	Is7

Joizlikni aniqroq tanlash uchun quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$p_R = \frac{R}{(B - 2r)} \cdot K_n \cdot F \cdot F_A,$$

bu yerda: R- radial kuch, N; V- 'odshi'nik xalqasining eni, mm; K, F, F_A -lar 'odshi'nikning turli ko'rsatkichlarini xisobga oluvchi koeffitsientlar.

Yuqoridagi ifoda orqali xisoblab to'lgan yuklanish intensivligining qiymati asosida quyidagi jadvaldan joizlik maydoni belgilanadi.

Val va teshik birikuvchi yuzalariga quyilgan yuklanish intensivligining ruxsat etilgan qiymatlari

Podshipnik ichki xalqasi teshiksining diametri, mm		Yuklanish intensivligining ruxsat etilgan qiymatlari			
		Val bilan biriktirishda			
dan ortiq	Gacha	is6	k6	m6	n6
18	80	300 gacha	300...1400	1400...1600	1600...3000
80	180	600 gacha	600...2000	2000...2500	2500...4000
180	360	700 gacha	700...3000	3000...3500	3500...6000
360	630	900 nacha	900...3500	3500...4500	4500...8000
Podshipnik tashqi xalqasining diametri, Mm		Detal korpusi bilan biriktirishda			
		K7	M7	N7	‘7
dan ortiq	Gacha				
50	180	800	800...1000	1000...1300	1300...2500
180	360	1000	1000...1500	1500...2000	2000...3300
360	630	1200	1200...2000	2000...2600	2600...4000
630	1600	1600	1600...2500	2500...3500	3500...5500

Mashg'ulotda quyidagilarni aniqlash talab etiladi:

1. Berilgan birikmaning ishlash xususiyatiga qarab podshipnik xalqalarining yuklanish turi aniqlanadi.
2. Podshipnikning asosiy o'lchamlari aniqlanadi.
3. Aylanma (tsirkulyatsion) yuklangan xalqa bilan birikkan detalning ishchi yuzasidagi radial yuk intensivligi xisoblanadi.

Xisoblash quyidagi ifoda orqali amalga oshiriladi:

$$P_R = \frac{R}{(B - 2r) \cdot 10^{-3}} \cdot K_n \cdot F \cdot F_A \quad \text{kN/m.}$$

bu yerda:

R – Podshipnik xalqasiga tahsir etuvchi radial reaktsiya kuchi, kN.

B – Podshipnik xalqasining eni, mm.

r – Podshipnik xalqasi qirrasining egrilik radiusi, mm.

K – dinamik koeffitsient bo'lib, u 'odshi'nik xalqasining yuklanish xarakteriga bog'liq bo'ladi (Masalan: agar xarakat bir tekis tebranishlarsiz va yuklanuvchanligi 150% gacha bo'lsa . $K = 1,0$ ga teng bo'ladi. Agar xarakat siltanish va tebranishlar bilan bo'lib, yuklanuvchanligi 300% gacha borsa . $K = 1,8$ ga teng bo'ladi).

F – val konstruksiyasini xisobga oluvchi koeffitsient. Agar val ichi to'la va bo'shliqlarsiz bo'lsa, $F = 1,0$ ga teng bo'ladi.

F_A - detal o'qi bo'ylab yo'nalgan yuklanishni xisobga oluvchi koeffitsient. Agar o'q bo'ylab yo'nalgan kuch bo'lmasa, $F_A = 1,0$ ga teng bo'ladi.

4. Aylanma yuklangan xalqa va detal uchun radial yuklanish intensivligiga qarab joizlik tanlanadi.
5. Maxalliy yuklangan xalqa va detal uchun ISO ning joizlik va joizliklarning yagona sistemasi tavsiyalariga asosan joizlik tanlanadi.
6. Tebranish podshipnikli birikmaning birikish diametrlari uchun chegaraviy chetlanishlar aniqlanadi.
7. Birikmaning ikkala diametri uchun joizlik maydoni grafigi chiziladi.
8. Birikmaning va podshipnik xalqalari bilan birikuvchi ikkala detalning eskizi chiziladi va unga o'lchamlari bilan birga chegaraviy chetlanishlari qo'yiladi.

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar:

Mashgulotni bajarish uchun talabalarga to'shriq tariqasida variant bo'yicha №1 birikma chizmasidagi №206 Podshipnik va unga tahsir etuvchi $R = 4500 \text{ N}$ ga teng radial reaksiya kuchi beriladi.

1. Birikma detallarining vazifasiga ko'ra 'odshi'nik xalqalarining yuklanish turini belgilaymiz. Bizning misolimizda podshipnikning ichki xalqasi aylanma yuklanishda, tashqi xalqasi esa mahalliy yuklanishda.
2. Ushbu qo'llanmaning 2- jadvalidan 'odshi'nikning asosiy o'lchamlarini aniqlaymiz.

Podshipnikning ichki diametri – $d = 30 \text{ mm}$.

Podshipnikning tashqi diametri – $D = 62 \text{ mm}$.

Podshipnik xalqasining eni - $B = 16 \text{ mm}$.

Podshipnik xalqasi qirrasining egrilik radiusi – $r = 1,5 \text{ mm}$.

3. Aylanma (tsirkulyatsion) yuklangan xalqa bilan birikkan detalning ishchi yuzasidagi radial yuk intensivligini hisoblaymiz.

$$P_R = \frac{R}{(B - 2r) \cdot 10^{-3}} \cdot K_n \cdot F \cdot F_A =$$

$$\frac{4500}{(16 - 2 \cdot 1,5) \cdot 10^{-3}} \cdot 1 \cdot 1 \cdot 1 = 346000 \frac{H}{m} = 346 \frac{kH}{m}$$

4. Aylanma yuklangan ichki xalqaga biriktirilayotgan val yuzasidagi radial yuk intensivligi ($R_R = 346 \text{ kN/m}$) ga qarab o'quv qo'llanmaning №3 jadvalidan joizlik tanlaymiz.

Val diametri uchun – $d = 30 \text{ k6}$

5. Mahalliy yuklangan tashqi xalqaga biriktirilayotgan teshik uchun JO'YaT tavsiyasiga binoan joizlik tanlaymiz (3a-jadval).

Teshik diametri uchun – $D = 62N7$

6. Tebranish podshipnigi uchun birikish diametrlarining chegaraviy chetlanishlarini tanlaymiz.

a) ichki xalqa va val joizliksi uchun:

ichki xalqa $\varnothing 30_{-0,012}$

Val $\varnothing 30k6 \left(\begin{smallmatrix} 0,018 \\ 0,002 \end{smallmatrix} \right) \text{ mm}$


b) Tashqi xalqa va korpus teshiksi joizliksi uchun:

Tashqi halqa $\varnothing 62_{-0,013}$

Kor'us teshiksi $\varnothing 62N7 \left(\begin{smallmatrix} 0,030 \\ 0 \end{smallmatrix} \right)$


Grafik qismi.

Biriktirilayotgan diametrlar uchun joizlik maydoni grafigi va birikma chizmasi, hamda detallarini aloxida chizib, chegaraviy chetlanishlar va o'lchamlarini qo'yamiz (3-chizma).



Podshipnikning biriktiriladigan o'lchamlari uchun joizlik maydoni grafiklari va birikmaning eskizi

a) Ichki xalqa – val birikmasining joizliksi



4-AMALIY MASHGULOT.

Mavzu: Detallarni nazorat qilish uchun sillik kolibrlarning ijrochi o'lchamlarini hisoblash

Ishning maqsadi: Detallarni nazorat qilish uchun sillik kolibrlarning ijrochi o'lchamlarini hisoblashni o'rganish

Kalibrlar va ularning vazifasi. Kalibr deb nazorat qilinuvchi ob'ektga teskari shaklli yuzaga ega bo'lgan o'lchovlar ataladi. Mavjud kalibrlar majmuini ikki guruxga bo'lish mumkin: normal kalirlar va chekka kalibrlar. Mashinasozlikda eng ko'p tarqalgan kalibrlar – chekka kalibrlardir. Chekka kalibrlar deb o'lchamlari nazorat qilinuvchi detallarning chekka o'lchamishi, nazorat va qabul kalibrlari haqida ma'lumot. Kalibrlar ishchi R (R - rabochiy), qabul qiluvchi P (P - priemnyy) va nazorat K (K - kontrol) kalibrlarga bo'linadi.

Ishchi kalibrlar R – PR Ishchi o'tuvchi (rabochiy proxodnoy) va **R – NE ishchi o'tmaydigan** (rabochiy neproxodnoy) kalibrlar buyumlarni ishlash jarayonida foydalanishga mo'ljallangan. Bu kalibrlardan ishchilar foydalanadi.

Qabul qiluvchi R – PR (qabul qiluvchi o'tuvchi) va **R – NE** (qabul qiluvchi o'tmaydigan) kalibrlardan ishlab chiqaruvchi zavodning texnikaviy nazorat bo'limlari (TNB) xodimlari va buyurtmachining vakillari foydalanadi. Bu kalibrlar aloxida tayyorlanmaydi va ular sifatida qisman yeyilgan R – PR xamda yangi R – NE kalibrlar qo'llaniladi.


Nazorat kalibri (kontrkalibr) vallarni nazorat qiluvchi kalibrlarni nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Vallarni nazorat qilish uchun teshik kalibr sifatida xizmat qiladi. Dekin, ichki yuzali detallarni tayyorlash va o'lchash tashqi yuzali detallarga nisbatan ancha qiyin (o'lchamlari va aniqligiga qarab, 2-5 marta

murakkabroq). SHuning uchun xalqa – kalibrlar (skoba - kalibrlar)ni ishlashda ularni nazorat qilish uchun K-PR va K-NE kalibrlar qo'llaniladi. (K - kontrol).


Nazorat kalibrlari K – I (kontrolnie-iznos; iznos - yeyilish) o'tmaydigan kalibrlar bo'lib, rostlanuvchi skoba – kalibrlarni kerakli o'lchamlarga joriy qilish va rostanmaydigan skoba – kolibrlarni nazorat qilish uchun xizmat qiladi.

O'tuvchi va o'tmaydigan kalibrlar.

O'tuvchi kalibrlar (PR) deb tekshirilayotgan ob'ekt materialining maksimumiga to'g'ri keladigan chekka o'lchamni nazorat qiluvchi kalibrga aytiladi. Demak, o'tuvchi valni nazorat qilganda, uning eng katta (joiz) chekka o'lchamini nazorat qilish kerak (bu xolda xam yaroqli detal eng ko'p materialga ega bo'ladi). Teshiklarni nazorat qilganda o'tuvchi kalibr eng kichik (joiz) chekka o'lchamni tekshiradi (bu xolda xam yaroqli detal eng ko'p materialga ega bo'ladi). Tekshirish paytida bu kalibr detalning nazorat qilinuvchi elementidan "o'tish" kerak. Oson eslab qolish uchun yana bitta qoida bor: o'tuvchi kalibr detal o'lchamini doim to'g'irlash mumkin bo'lgan yaroqsizlik chegarasi yonida cheklaydi (joizdan katta yoki joizdan kichik teshikni qo'shimcha io'lov berib xam to'g'rilash mumkin).




